



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(6)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 374 sahifa,
22-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

“Kitobxonlar klubi” modelining ingliz tili to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	10
Madaminova Gulzira Gulamkadirovna	
Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida suggestiv yondashuvning o‘rni	14
Arolov Davronjon Davlataliyevich	
Akmeologik yondashuv asosida maktabgacha ta‘lim direktor o‘rinbosarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish	19
Asatullayeva Sitora Dilmurod qizi	
Hozirgi o‘zbek tilida neologizmlarning tarixi va bugungi kun taraqqiyoti.....	22
Bektosheva Mehinbonu Abdumalik qizi	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari bolalarida jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	26
Djurayeva Dilfuza Nuriddin qizi	
Korpus lingvistikasi vositalari yordamida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til tahlili ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	30
Eshonqulova Sarvinoz Yashinovna	
Talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda sun‘iy intellektning o‘rni va ahamiyati.....	35
Hojiyeva Nasiba Bahodirovna	
Logopedik mashg‘ulotlarni tashkil etish va rejalashtirish moduliga oid mustaqil ta‘lim topshiriqlarini integrativ modellashtirishning innovatsion texnologiyalari.....	39
Ibroximova O‘g‘iloy Inomjon qizi	
Jismoniy tarbiya darslarida ortiqcha vaznli bolalarga differensial yondashuvning ahamiyati	43
Yuldashev Bobirjon Noibjon o‘g‘li	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotida xalq og‘zaki ijodi vositasida bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirishning ahamiyati.....	48
Muradxanova Munisaxon Ikrom qizi	
Bo‘lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning psixologik imkoniyatlari	54
Nusratova Mexriniso Baxshilloevna	
Inklyuziv ta‘lim tushunchasi va uning zamonaviy pedagogik paradigmalar tizimidagi o‘rni.....	59
Pulatova Dilfuza Azamkulovna	
Magistrlarda “Imposter sindromi”ni yengish orqali kreativ salohiyatni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari.....	66
Qayumov Baxtiyor Zokirjon o‘g‘li	
Kichik maktab yoshidagi bolalar nutqining fonematik rivojlanishi	70
Qurbonova Sevara Suyunovna	
Mikrobiologiya ta‘limida individual pedagogik texnologiyalarni joriy etish mexanizmlari	74
Raxmatov Oxunjon Soibjonovich	
“Estetik tarbiya”, “kreativ kompetensiya”, “estetik tarbiya mexanizmlari” tushunchalarining konseptual asoslari.....	79
Saidova Feruza Akramovna	
Zamonaviy ta‘lim jarayonida neyropedagogika yordamida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.....	84
Sidiqova Yulduz Sobirovna	
“So‘nggi jadid” Begali Qosimovning ilmiy-pedagogik merosi.....	88
Toxirova Dilshoda Inom qizi	
Ona tili darslarida o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar ustida ishlash	92
Turg‘unova Nilufar Muxiddin qizi	
Ingliz, golland va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning lingvostatistik xususiyatlari.....	96
Xaydarova Go‘zalxon	



Maktabgacha yoshdagi bolalarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda yumshoq ko'nikmalarning ahamiyati.....	101
<i>Xolmatova Dilshoda Sherali qizi</i>	
Farzandlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda oilaning pedagogik imkoniyatlari	105
<i>Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna</i>	
Yoshlarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali sotsial manipulyativ ta'sirlarga psixologik barqarorlikni shakllantirish.....	109
<i>Qosimova Sarvinoz Baxtiyorovna</i>	
O'quvchilarda modellashtirish ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashadigan faoliyat usullari	114
<i>Abdurazzaqov O'ktam Abduqayumovich</i>	
Dizartriya shakllarining klinik-patogenetik tahlili va differensial diagnostikasi	120
<i>Axmedova V. T.</i>	
Boshlang'ich sinflarda fanlararo yondashuvga asoslangan integrativ topshiriqlar ishlab chiqishning uslubiy asoslari.....	127
<i>Elmurodova Inoyat Abdumutalibovna</i>	
Deviant xulq-atvorli o'smirlar ijtimoiylashuvining psixologik determinantlari.....	132
<i>Elov Ziyodullo Sattorovich</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida talabalar o'quv natijalarini baholashning pedagogik modeli.....	138
<i>Ernazarov Mirzohid Yo'ldosh o'g'li</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi	145
<i>Mamadaliyeva Zarina Raxmat qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda kognitiv tilshunoslikni joriy etish masalalar	150
<i>Mamatova Gulshan Amankulovna</i>	
Doston musiqiy merosini o'rganishni uslubiy takomillashtirish mazmuni.....	153
<i>Qo'shayev Ilhom Axtamovich, Nasirova Sevinch Ismatovna</i>	
"Elektr yoritish" fanida mustaqil ta'limning zamonaviy shakllari.....	157
<i>Nasretdinova Feruza Nabiyeвна</i>	
Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish	162
<i>Nazarova Dildora Asatovna, Kuchkorova Robiya Shuxrat qizi</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	167
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
A Methodological Model for Developing Pedagogical Reflection in Pre-Service EFL Teachers.....	172
<i>Rahimberdiyeva Maftuna Rakhimberdi kizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzining kasbiy kompetentlikka ta'siri	177
<i>Raximova Saboxat Qaxramon qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda interaktiv texnologiyalar va faol ta'lim metodlarining samaradorligi	182
<i>Safarova Nigora Nasilloevna</i>	
Maktabgacha ta'lim jarayonida interfaol usullarning mazmuni, turlari va funksional ahamiyati.....	190
<i>Safarova Soliha Ilhomovna</i>	
Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati... 196	
<i>Saotmuratova Zebo Yuldash qizi</i>	
Musiqqa ta'limida interfaol metodlardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari.....	200
<i>Saparov Raxim Muratbayevich</i>	
Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish ijtimoiy zarurat sifatida.....	204
<i>Xolmatova Yodgoroy Baxtiyorjon qizi</i>	
Energetika fanlarini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik afzalliklari.....	208
<i>Zoxidov Iqboljon Zokirjonovich</i>	
Методическая модель контекстуального обучения в формировании лингвокультурной компетенции при обучении русскому языку в национальных группах	213
<i>Рустамова Ферузaxon Махмуджановна</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Integrating Artificial Intelligence into EFL Academic Writing Instruction: Opportunities, Challenges, and Pedagogical Implications..... 218 Allamurodov Elyor Tursun ugli	218
	Sahna nutqida adabiy tur va janrlarning metodik talqini..... 223 Dilrabo Jumanova	223
	Sun'iy intellekt asosidagi ta'lim ekotizimi: imkoniyatlar va xavflar 227 Oqil Ochilov Lutfullo o'g'li	227
	Z avlod bilan ishlashda ta'lim va tarbiyaga oid zamonaviy tendensiyalar 232 Ravshanov Sanjar Tolibjonovich	232
	Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati... 235 Saotmuratova Zebo Yuldash qizi	235
	Tarixiy-ilmiy materiallar va zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining geometrik tafakkurini rivojlantirish metodikasi..... 239 Toshpulatova Mamura Ismailovna, Mannonova Dilafro'z Ravshan qizi	239
	Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish va muvofiqlashtirish ... 244 Xakimov Abdug'ulom Soyibjonovich	244
	Ingliz tilini boshqa sohadagilarga o'qitishda grammatik jihatlar 247 Ataboyeva Guliruxsor Baxtiyor qizi	247
	Methodological Foundations for Developing Environmental Education Through the Integration of Climate Change Education Into Biology Lessons in General Secondary Schools..... 250 Abdurakhmanova Iqbolkhon Yulchiyevna	250
	Sharq va G'arb mutafakkir olimlarining oila va farzand tarbiyasi borasidagi qarashlari 255 Berdiyeva Dilnoza A'zamovna	255
	Ommaviy sport turlari yordamida ayollarni sog'lom turmush tarziga yo'naltirishda ilmiy yondashuv 258 Charos Axmadova	258
	STEAM integratsiyasi orqali maktab o'quvchilarida tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish 262 Choriyor Maxmatraimov Eshmamatovich	262
	Maktabgacha ta'lim kafedrasida bo'lajak tarbiyachilarni innovatsion-metodik faoliyatga tayyorlashni transformatsion boshqarish texnologiyasi 267 Djalalov Baxromjan Begmurzayevich	267
	Raqamli transformatsiya sharoitida yosh ota-onalarda yolg'izlik hissining namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik omillar 272 Erimmetova Nafisa Bahromovna	272
	Zamonaviy ta'lim muhitida talabalarning ijtimoiy-psixologik adaptatsiyasi va uning strategiyalari 279 Haqberdiyeva Dinora Qobil qizi	279
	Maktab direktorlarining moliyaviy boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari..... 283 Karimov Jaxongir Abdunabiyevich	283
	Jadidlar merosiga e'tibor: tarixiy xotira va ma'naviy tiklanish omili..... 287 Madaminova Shaxodat Shomurotovna	287
	Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'limdagi o'rni va nutqni baholashdagi imkoniyatlari..... 293 Mahmudova Maftuna Aktam qizi	293
	Effectiveness of Simulator Technologies in Pilot Training: an Experimental Study 297 Maksudov Ilhomjon Turgunboy o'g'li	297
	Yangi O'zbekistonda o'qituvchi maqomining huquqiy kafolatlari va pedagogik faoliyat samaradorligi..... 301 Menlibayeva Azima Oralbayevna, Oralbayeva Aziza	301
	Raqamli jamiyat sharoitida ong transformatsiyasining falsafiy jihatlari..... 305 Muxitdin Nazarov	305
	10-11-sinf o'quvchilarida o'qishdan yozuvga o'tish ko'nikmasini rivojlantirishning bosqichli metodik tizimi ... 310 Nazarova Shoiraxon Abdumo'min qizi	310
	Zamonaviy ta'lim paradigmasida "potensial" tushunchasi: shaxsning rivojlanishga qaratilgan ichki imkoniyatlari, bilim, ko'nikma, qobiliyat va kompetensiya..... 314 Qurbonova Gulmira Alisher qizi	314



Deffenbacherning driving anger scale metodi asosida haydovchilarning agressiv xulq-atvorining psixologik xususiyatlarini jinslar kesimida o'rganish	318
Rahim Usmonov Raxmonali o'g'li	
Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	323
Sadoqat Sarmanova Shermahmatovna	
Vizual axborot: paydo bo'lish tarixi, qo'llanish sohalari va ta'lim jarayonidagi ahamiyati.....	328
To'g'izboyev Faxriddin Ulashovich	
Fizika darslarini tashkil etishning mazmuni, mohiyati va didaktik tamoyillari.....	334
Turabova Lobar Xusen qizi	
Ekstrakorporal urug'lantirish orqali tug'ilgan bolalarda xotiraning rivojlanishi	339
Usmonova Xusnora Ergashovna	
Raqamli ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining emotsional barqarorligini shakllantirish	344
Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna	
Milliy va xalq o'yinlari vositasida talabalarni sog'lomlashtirish.....	347
Ahmedov Gayratjon Kosimovich	
Деонтология медицинского персонала: этико-профессиональные ориентиры в условиях современной медицины.....	350
Бабаджанова Гулчеҳра	
Формирование творческого восприятия учащихся на уроках музыки.....	355
Габдульманова Ильнура Минисламовна	
Qizlar tarbiyasida maktab va mahalla hamkorligi monitoring tizimini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	358
Abdurazoqova Marg'uba Muxammad qizi	
Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarida iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish pedagogik muammo sifatida	362
Ergashova Dilafro'z	
Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy karyerani shakllantirishning metodologik asoslari	365
Hayitova Sarvinoz Mahmudovna, Ilmiy rahbar: Ashirova Sojida Baxromovna	
Pedagogical and Methodological Foundations for Developing an Interactive Mobile Application for Teaching English to Preschool Children (Based on the Solobee Project)	368
Khurshida Kuchkarova	

QIZLAR TARBIYASIDA MAKTAB VA MAHALLA HAMKORLIGI MONITORING TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Abdurazoqova Marg'uba Muxammad qizi

Qori Niyoziy nomli tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada qizlar tarbiyasida maktab va mahalla o'rtasidagi hamkorlikni tashkil etish hamda uni monitoring qilish tizimini takomillashtirishning pedagogik asoslari yoritilgan. Maqolada o'zbek pedagogik fikrida shakllangan tajriba, zamonaviy ilmiy-uslubiy yondashuvlar, shuningdek, so'nggi davlat siyosati va me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlil qilinib, qizlar tarbiyasida ta'lim muassasasi, oila va mahalla o'rtasidagi hamkorlikni baholash, nazorat qilish va rivojlantirish bo'yicha pedagogik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqotda hamkorlikni monitoring qilishning bosqichma-bosqich modeli, shuningdek, monitoring samaradorligini baholash mezonlari taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: qizlar tarbiyasi, maktab-mahalla hamkorligi, monitoring tizimi, pedagogik shart-sharoit, ijtimoiy tarbiya, ta'lim-tarbiya integratsiyasi, milliy qadriyatlar, ijtimoiy profilaktika.

Abstract: This article highlights the pedagogical foundations for improving the monitoring system of cooperation between schools and mahallas (local communities) in the upbringing of girls. The article analyzes the experience formed in Uzbek pedagogical thought, modern scientific and methodological approaches, as well as recent state policies and regulatory documents, and develops pedagogical recommendations for assessing, monitoring, and enhancing cooperation between educational institutions, families, and mahallas in the upbringing of girls. The study presents a step-by-step model for monitoring this cooperation and criteria for evaluating its effectiveness.

Key words: girls' upbringing, school-mahalla cooperation, monitoring system, pedagogical conditions, social education, integration of education and upbringing, national values, social prevention.

Аннотация: В данной статье освещены педагогические основы совершенствования системы мониторинга организации сотрудничества школы и махалли в воспитании девочек. В статье проанализирован опыт, сформировавшийся в узбекской педагогической мысли, а также современные научно-методические подходы, разработаны педагогические рекомендации по оценке, контролю и развитию сотрудничества между образовательным учреждением, семьей и махаллэй в воспитании девочек. В исследовании представлена поэтапная модель мониторинга сотрудничества.

Ключевые слова: воспитание девочек, сотрудничество школы и махалли, система мониторинга, педагогические условия, социальное воспитание, интеграция образования и воспитания, национальные ценности.

KIRISH

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya islohotlari sharoitida yosh avlodni, xususan, qizlarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Milliy statistika qo'mitasining dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, 2024/2025 o'quv yilida barcha mulkchilik shaklidagi umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining 11-sinfini bitirishi kutilayotgan o'quvchilarning umumiy soni 455,2 ming nafarni tashkil etgan bo'lib, shundan 243,1 ming nafari qiz bolalar bo'lgan^[1,1].

Bu raqamlar qizlar ta'lim-tarbiyasining mamlakat miqyosidagi ahamiyatini va ushbu jarayonda barcha ijtimoiy institutlarning, jumladan, maktab va mahallaning hamkorlikda ishlashi zaruriyatini yana bir bor tasdiqlaydi. Qizlar tarbiyasi nafaqat oilaviy, balki ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan murakkab pedagogik jarayon bo'lib, uning samarali kechishi ko'p jihatdan ta'lim muassasasi, oila va mahalla o'rtasidagi izchil hamkorlikka bog'liqdir. Mahalliy pedagogik tajriba shuni ko'rsatadiki, qizlarni tarbiyalashda ularning yosh xususiyatleri va karakter xususiyatlariga alohida e'tibor berish zarur, aks holda tarbiyaviy maqsadlarga to'liq erishib bo'lmaydi^[1,2].

Mahalla institutining O'zbekiston ijtimoiy hayotidagi o'ziga xos o'rni uni maktab bilan birgalikda tarbiya subyekti sifatida qarashga asos beradi. Tadqiqotchilarning fikricha, "maktab, ota-ona va mahalla" hamkorligi yoshlarning ijtimoiylashuvi va milliy-ma'naviy qadriyatlar sohibi bo'lib ulg'ayishini ta'minlashda muhim rol



o'ynaydi. Shuningdek, ota-onalar va mahalla vakillarining ta'lim jarayoniga faol jalb etilishi o'quvchilarning ta'lim olish sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi ^[3.1].

Mahalla tizimining ijtimoiy ahamiyati davlat darajasida ham mustahkamlangan: Prezident tashabbusi bilan 2020-yil 2-martda qabul qilingan "Mahalla tizimi xodimlari kunini belgilash to'g'risida"gi Qonun mamlakatimizda har yili 22-mart - Mahalla tizimi xodimlari kuni sifatida nishonlanishini belgilab berdi. Bu esa mahalla institutining tarbiyaviy faoliyatini davlat siyosati darajasiga ko'targanini ko'rsatadi ^[9.1].

Shu bilan birga, amaliyotda maktab-mahalla hamkorligi ko'pincha tasodifiy, tizimsiz va monitoringsiz tarzda olib borilmoqda. Hamkorlik natijalarini doimiy kuzatish, tahlil qilish va o'z vaqtida tuzatish imkonini beradigan ilmiy asoslangan monitoring tizimining yo'qligi qizlar tarbiyasi sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu muammoning dolzarbligi so'nggi me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ham o'z aksini topgan: 2025-yil 1-dekabrda qabul qilingan "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi Nizomga ko'ra, mahalla raisi, hokim yordamchisi, profilaktika inspektori, yoshlar yetakchisi va xotin-qizlar faoli kabi mas'ul shaxslar - shartli ravishda "mahalla yetiligi" - maktab direktori, psixolog va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda ijtimoiy profilaktika ishlarini olib borishi belgilangan ^[10.1].

Bu hujjat qizlar tarbiyasida maktab-mahalla hamkorligini institutsional jihatdan mustahkamlovchi muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi, biroq uning amaliyotdagi samaradorligi ko'p jihatdan tizimli monitoring mexanizmining mavjudligiga bog'liq. Bu holat mazkur muammoni pedagogik nuqtai nazardan chuqur tahlil qilish va monitoring tizimini takomillashtirishning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Maqolaning maqsadi - qizlar tarbiyasida maktab va mahalla hamkorligini monitoring qilish tizimining pedagogik mohiyatini ochib berish, uning samaradorligini oshirish yo'llarini ilmiy adabiyotlar va so'nggi me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlili asosida asoslab berishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Qizlar tarbiyasi va maktab-mahalla-oila hamkorligi muammosi o'zbek pedagogika ilmidagi bir qator tadqiqotlarda o'rganilgan. Jumladan, F.I. Xaydarov va N. Xalilovning umumiy psixologiyaga oid ishlarida shaxs tarbiyasining psixologik mexanizmlari, yosh davrlari xususiyatlari yoritilgan bo'lsa ^[2.5], Sh.A. Dushmanmedova va hammualliflarning "Yosh va pedagogik psixologiya" nomli qo'llanmasida o'smirlar davri psixologiyasi, jumladan, qizlarning shaxsiy rivojlanish xususiyatlari atroficha tahlil qilingan ^[3.12].

Sh.F. Ashurova va M.N. Karimovning tadqiqotlarida professional ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ularda sog'lom turmush tarzini shakllantirishning psixologik-pedagogik omillari ochib berilgan. Mualliflar oilada o'smirlarning sog'lom turmush tarzi haqidagi tasavvurlari shakllanishida oila, maktab va jamiyat hamkorligining birgalikdagi ta'siri muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydilar ^[4.371].

Maktab-oila-mahalla hamkorligini modellashtirish masalalari bo'yicha olib borilgan so'nggi tadqiqotlarda ushbu hamkorlikning aksiologik (qadriyatli), ijtimoiy-moslashuvchan, refleksiv-tahliliy va fuqarolik o'zligini anglash kabi bosqichlardan iborat pedagogik modeli taklif etilgan. Bunday model doirasida muhokamalar, interaktiv mashg'ulotlar va ijtimoiy loyihalar orqali o'quvchining bilimlari, hissiy munosabati hamda xulq-atvori tizimli ravishda shakllantiriladi ^[6.4]. Mazkur yondashuv qizlar tarbiyasida hamkorlikni monitoring qilish tizimini ishlab chiqishda metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

"Tadqiqotlar" jahon ilmiy-metodik jurnalida e'lon qilingan tadqiqotda ta'kidlanishicha, yosh avlodni yaxshi xulqli, vatanparvar, mehnatsevar qilib tarbiyalashda ularning yosh va xarakter xususiyatlariga alohida ahamiyat berish zarur, bunday yondashuvsiz tarbiyada ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi ^[5.1].

Tadqiqotchi, shuningdek, maktab yosh avlod tarbiyasida asosiy rolni o'ynashi, biroq bu jarayon faqat ota-onalar bilan hamkorlik orqali samarali natija berishi mumkinligini ta'kidlaydi. Gender masalalari bo'yicha so'nggi monografik tadqiqotlarda ta'lim tizimida gender tengligini ta'minlash, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish va ularning huquq hamda manfaatlarini muhofaza qilish bo'yicha huquqiy-tashkiliy asoslar tizimli tahlil qilingan ^[11.7]. Bu tadqiqot qizlar tarbiyasi masalasini faqat pedagogik emas, balki kengroq ijtimoiy-huquqiy kontekstda ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi. Bu esa monitoring tizimini ishlab chiqishda gender o'lchovini ham hisobga olish lozimligini ta'kidlaydi. Xulosa qilib aytganda, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, maktab-mahalla hamkorligining nazariy-metodologik asoslari yetarlicha ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ushbu hamkorlikni amalda kuzatish, baholash va boshqarish imkonini beruvchi monitoring tizimi alohida ilmiy muammo sifatida to'liq yoritilmagan. Bu esa mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, hujjatlarni tahlil qilish va pedagogik kuzatuv metodlaridan foydalanildi. Ilmiy-pedagogik adabiyotlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar (jumladan, so'nggi davlat qarorlari), shuningdek, amaliy tajriba materiallari tahlil qilindi. Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo'naltirilgan, tizimli-faoliyatli va aksiologik yondashuvlar tashkil etadi. Bular qizlar tarbiyasini yaxlit ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qizlar tarbiyasi milliy mentalitet, urf-odatlar va islomiy-ma'naviy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan murakkab pedagogik-ijtimoiy jarayondir. Ushbu jarayonning samaradorligi faqat oila yoki faqat ta'lim muassasasi faoliyati bilan cheklanmaydi, balki bola yashaydigan ijtimoiy muhitning barcha bo'g'inlari - oila, maktab va mahallaning uzviy hamkorligini talab etadi. Mahalla o'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan o'ziga xos ijtimoiy-tarbiyaviy instituti bo'lib, u nafaqat ma'muriy-hududiy birlik, balki har bir oilaning farovonligi, bolalar tarbiyasi va xulq-atvorini nazorat qiluvchi jamoatchilik kuchi sifatida ham namoyon bo'ladi. Maktab va mahalla hamkorligining pedagogik mohiyati quyidagi vazifalarda namoyon bo'ladi: birinchidan, qizlarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi ehtiyojlarini har tomonlama, ya'ni nafaqat darsxonada, balki maktabdan tashqari muhitda ham aniqlash va qondirish; ikkinchidan, qizlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni ijobiy ijtimoiy faoliyatga jalb qilish; uchinchidan, oilada yoki mahallada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tarbiyaviy muammolarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishda hamkorlikda ishlash; to'rtinchidan, qizlarda milliy-ma'naviy qadriyatlarga, oila va jamiyat oldidagi mas'uliyatga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish. Bundan tashqari, 2026-yil 1-yanvardagi PQ-1-son1 qarorga ko'ra, mahalla, ichki ishlar organlari, prokuratura, sud, ta'lim va tibbiyot muassasalari o'rtasida axborot almashinuvini samarali tashkil etish idoralararo hamkorlikni mustahkamlash vositasi sifatida belgilangan ^[12.1], bu esa qizlar tarbiyasiga oid muammolarni kompleks hal etishda maktab-mahalla hamkorligining huquqiy jihatdan kengayishini ko'rsatadi.

Maktab-mahalla hamkorligi qanchalik yaxshi tashkil etilgan bo'lmasin, uning samaradorligini doimiy kuzatib borish, natijalarni tahlil qilish va zarur hollarda tuzatishlar kiritish mexanizmi mavjud bo'lmasa, ushbu hamkorlik vaqt o'tishi bilan shaklan mavjud, mazmunan esa samarasiz tusga kirib qolishi mumkin. Aynan shu sababli monitoring tizimi hamkorlikning ajralmas pedagogik komponenti sifatida qaralishi lozim. Monitoring tizimining pedagogik vazifalarini quyidagicha tasniflash mumkin: tashxis qiluvchi vazifa - qizlar tarbiyasidagi mavjud holatni va muammolarni o'z vaqtida aniqlash; baholovchi vazifa - hamkorlik natijalarining belgilangan mezonlarga muvofiqligini o'lchash; tuzatuvchi vazifa - aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tezkor chora-tadbirlar ishlab chiqish; rag'batlantiruvchi vazifa - hamkorlikda faol qatnashayotgan oila, mahalla faollari va pedagoglarni rag'batlantirish orqali jarayonni faollashtirish. Monitoring tizimining zamonaviy raqamli imkoniyatlari ham e'tiborga molik. Xususan, 2026-yil yakuniga qadar ishga tushirilishi rejalashtirilgan "O'smir-signal" elektron moduli voyaga yetmaganlar bilan bog'liq noxush holatlarni tezkor aniqlash imkonini beradi ^[10.2]. Bunday raqamli vositalar an'anaviy pedagogik monitoring usullarini to'ldirib, qizlar tarbiyasidagi xavf omillarini ertaroq aniqlash imkonini beradi. Bu esa monitoring tizimining tashxis qiluvchi vazifasini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'taradi.

O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, qizlar tarbiyasida maktab-mahalla hamkorligi monitoring tizimini takomillashtirish quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga rioya qilinganda samarali bo'ladi: Monitoring mezonlarining aniq va o'lchanadigan bo'lishi - qizlar bilan olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari (tadbirlarda qatnashish, xulq-atvor dinamikasi, oilaviy munosabatlar holati va boshqalar) oldindan belgilab olinishi lozim. Hamkorlik subyektlarining (maktab pedagoglari, sinf rahbarlari, mahalla faollari, ota-onalar qo'mitasi, psixolog, profilaktika inspektori) o'zaro axborot almashinuvini ta'minlovchi muntazam mexanizmlarning mavjudligi ^[10.1]. Monitoring natijalarini tahlil qilish va qaror qabul qilishda ilmiy-pedagogik yondashuvga, ya'ni statistik ma'lumotlar va sifatli kuzatuvlar uyg'unligiga asoslanish. Qizlarning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda individuallashtirilgan monitoring yo'nalishlarini ishlab chiqish, chunki turli yosh davridagi qizlar tarbiyasida ehtiyojlar farqlanadi. Monitoring jarayonida qizlarning o'zlarini va ularning fikr-mulohazalarini hisobga olish, ya'ni nazoratning faqat "yuqoridan" emas, balki ishtirokchilik tamoyiliga asoslanishi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalardagi qizlarga alohida e'tibor qaratish - Ijtimoiy reyestrda kiritilgan oilalar uchun moliyaviy ko'mak miqdorining 1,5 baravarga oshirilishi singari ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash choralari monitoring tizimida hisobga olish ^[10.3]. Pedagoglar va mahalla faollarining monitoring metodikasi bo'yicha tizimli malaka oshirishlarini ta'minlash.

Tahlil natijalari asosida qizlar tarbiyasida maktab-mahalla hamkorligini monitoring qilishning to'rt bosqichli pedagogik modelini taklif etish mumkin. Birinchi, tashxis bosqichida qizlarning tarbiyaviy holati, oilaviy-mahalliy muhiti, ehtiyojlari va qiziqishlari maktab psixologi, sinf rahbari va mahalla faoli hamkorligida o'rganiladi. Ikkinchi, rejalashtirish bosqichida olingan ma'lumotlar asosida har bir qiz yoki qizlar guruhi uchun individual yoki guruhiy tarbiyaviy ish rejasi tuziladi, unda maktab va mahallaning aniq vazifalari belgilanadi. Uchinchi, amalga oshirish va kuzatish bosqichida rejalashtirilgan tadbirlar bajariladi, bu jarayon davomida muntazam kuzatuv varaqalari va hisobotlar yuritiladi. To'rtinchi, tahlil va korreksiya bosqichida ma'lum vaqt (masalan, chorak yoki yarim yillik) yakunida erishilgan natijalar tahlil qilinadi, kamchiliklar aniqlanadi va keyingi davr uchun ish rejasiga zarur tuzatishlar kiritiladi.

1 <https://lex.uz/uz/docs/-7973611>



Ushbu davriylik monitoring tizimining doimiy takomillashuvchi, “yopiq sikl” shaklida faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Monitoring tizimining samaradorligini baholash uchun bir necha o'lchov guruhini ajratish mumkin. Miqdoriy mezonlar guruhiga qizlar tarbiyasiga oid tadbirlarda qatnashganlar foizi, mahalla va maktab hamkorligida o'tkazilgan tadbirlar soni, aniqlangan muammoli holatlarning o'z vaqtida hal etilganlari nisbati kiradi. Sifat mezonlari guruhiga qizlarning milliy qadriyatlarga oid bilim darajasi, ularning oilaviy munosabatlardagi qoniqish darajasi, mahalla faollari va ota-onalarning pedagogik faollik ko'rsatkichlari kiritiladi. Institutsional mezonlar guruhiga esa idoralararo hamkorlik mexanizmlarining mavjudligi, axborot almashinuvi tezligi va profilaktika chora-tadbirlarining o'z vaqtida amalga oshirilganligi kiradi.

Yuqorida ko'rsatilgan model asosida tashkil etilgan monitoring tizimi bir qator ijobiy pedagogik natijalarga olib keladi.

*Birinchi*dan, qizlar tarbiyasidagi muammolar erta bosqichda aniqlanadi va og'ir ijtimoiy-psixologik holatlarga aylanishining oldi olinadi.

*Ikkinchi*dan, maktab va mahalla o'rtasidagi mas'uliyat taqsimoti aniq belgilanadi, bu esa hamkorlikdagi formal yondashuvni bartaraf etadi.

*Uchinchi*dan, ota-onalar va mahalla aholisining ta'lim-tarbiya jarayoniga bo'lgan ishonchi hamda ishtiroki kuchayadi, chunki ular o'z farzandlari taqdiriga oid qarorlar qabul qilishda faol ishtirok etadilar.

*To'rtinchi*dan, erta nikoh va undan kelib chiqadigan ijtimoiy-pedagogik muammolarning oldini olish samaradorligi oshadi, chunki yangi mexanizmga ko'ra mahalla fuqarolar yig'inlari, ta'lim va tibbiyot muassasalari, shuningdek, diniy idora vakillariga erta nikoh yoki 16 yoshgacha bo'lgan qizlarning homiladorligi haqidagi ma'lumotlarni tegishli organlarga yetkazish majburiyati yuklatilgan ^[10,4].

*Beshinchi*dan, qizlarda milliy qadriyatlarga asoslangan sog'lom dunyoqarash, mas'uliyat hissi va o'zini anglash darajasi izchil tarzda yuksaladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, qizlar tarbiyasida maktab va mahalla hamkorligi nafaqat an'anaviy ijtimoiy-madaniy zaruriyat, balki zamonaviy pedagogik tizimning muhim tarkibiy qismidir. Ushbu hamkorlikning samaradorligini ta'minlash uchun uni izchil va ilmiy asoslangan monitoring tizimi orqali boshqarish talab etiladi. Monitoring tizimini takomillashtirish aniq mezonlar belgilash, subyektlar o'rtasida muntazam axborot almashinuvini yo'lga qo'yish, individuallashtirilgan yondashuvni qo'llash, raqamli vositalardan foydalanish va davriy tahlil-korreksiya mexanizmini joriy etish orqali amalga oshiriladi.

Taklif etilgan to'rt bosqichli model - tashxis, rejalashtirish, amalga oshirish va tahlil-korreksiya - hamda miqdoriy, sifat va institutsional mezonlar majmuasining amaliyotda qo'llanilishi qizlar tarbiyasi sifatini sezilarli darajada oshirish, maktab va mahalla o'rtasidagi hamkorlikni mazmunli va natijaga yo'naltirilgan tizimga aylantirish imkonini beradi. So'nggi davlat siyosati va me'yoriy-huquqiy hujjatlarda mahalla institutining tarbiyaviy hamda profilaktik vazifalari kuchaytirilayotgani ushbu mexanizmlarni ilmiy asoslash va amaliyotga tatbiq etish zaruriyatini yanada dolzarb qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 2026-yil 1-yanvardagi PQ-1-son “Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo'nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimi to'g'risidagi qaror” <https://lex.uz/uz/docs/-7973611>
2. O'zbekistonda 2024/2025 o'quv yilida 11-sinfni 455,2 ming nafar o'quvchi bitiradi // Ta'lim xabarlar. - 2025. - <https://talimxabarlari.uz/30583/>
3. Xaydarov F.I., Xalilova N. Umumiy psixologiya. - T.: “Fan va texnologiyalar” markazining bosmaxonasi, 2009. - 5-b.
4. Dusmuxamedova Sh.A., Nishonova Z.T., Jalilova S.X., Karimova Sh.K., Alimbaeva Sh.T. Yosh va pedagogik psixologiya. - T.: TDPU, 2013. - 12-b.
5. Ashurova Sh.F., Karimova M.N. Professional ta'limda tahsil olayotgan qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash va ularda sog'lom turmush tarzini shakllantirishning psixologik asoslari // Educational Research in Universal Sciences. - 2023. - B. 369-373.
6. Qizlar tarbiyasida maktab va mahalla hamkorligi // Tadqiqotlar jahon ilmiy-metodik jurnali. - Chortoq tumani, 2023. - 1-b.
7. Globallashtirish muhitida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda maktab-oila o'zaro munosabatlari modelini yaratish // ilmiy maqola. - 2025. - 4-b.
8. Bola tarbiyasida oila, mahalla, maktab hamkorligining roli // International Conference on Multidisciplinary Science. - 2024. - № 2(4). - B. 128-132.
9. “Maktab yoshidagi qizlar bilan ishlash” yo'nalishi bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. - Toshkent, 2022. - 8-b.
10. Egamberdieva N.M., Xonturaev B.A., Abdiraimova Sh. Ta'lim tizimida gender tengligini ta'minlash masalalari: monografiya. - Toshkent: “Mahalla va oila” nashriyoti, 2024. - 116 b.
11. Mahalla instituti orqali oila huquqini amalga oshirish: zamonaviy yondashuvlar va islohotlar // Yuz.uz. - 2026. - <https://yuz.uz/uz/news/mahalla-instituti-orqali-oila-huquqini-amalga-oshtirish-zamonaviy-yondashuvlar-va-islohotlar>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(6)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.